

OLIY TA'LIM O'QUV-TARBIYA JARAYONINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISH MEXANIZIMLAIRI

Kozimova Mehriniso Akbarali qizi

Turkiston yangi innovatsiyalar instituti magistranti

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna

Ilmiy rahbar– Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oliy ta'lif muassasalarida kreativ yondashuv asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini aks etirgan. Talabalarning innovatsion faoliyati, innovatsion ta'lif va axbarot kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan. Oliy ta'lif tizimida kredit modul tizimining joriy etilishi, asosiy tamoyillari va vositalari haqida ma'lumot berilgan. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda inovvatsion texnologiyalarni o'rni hamda axborot texnologiyalarni qo'llash bo'yicha takliflar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lif, didaktika, kreativ yondashuv, ta'lif sifati, qobiliyat, kredit modul, mustaqil fikrash, renesans, reyting, masulyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражены дидактические возможности организации учебно-воспитательного процесса в высших учебных заведениях на основе креативного подхода. Описаны инновационная деятельность учащихся, инновационные образовательные и информационно-коммуникационные технологии, факторы, способствующие развитию у учащихся творческих способностей. В системе высшего образования представлена информация о внедрении, основных принципах и инструментах кредитно-модульной системы. Представлены предложения и рекомендации по роли инновационных технологий в организации учебно-воспитательного процесса, а также по применению информационных технологий.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, дидактика, креативный подход, качество образования, способности, кредит модуль, независимое мышление, Ренессанс, рейтинг, консультирование.

ABSTRACT

This article reflects the didactic possibilities of organizing the educational process in higher educational institutions based on a creative approach. Innovative activity of students, innovative educational and information and communication technologies, factors contributing to the development of students' creative abilities are described. The higher education system provides information on the implementation, basic principles and tools of the credit-modular system. Proposals and recommendations on the role of innovative technologies in the organization of the educational process, as well as on the use of information technologies are presented.

Keywords: Independent learning, didactics, creative approach, quality of education, abilities, credit module, independent thinking, Renaissance, rating, consulting.

KIRISH

Jahonda oliy ta'lif sifati va kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, intellektual faolligini shakllantirish masalalari bilan Yunesko, oliy ta'lif sifatini ta'minlash Yevropa tarmog'i shug'ullanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lif mazmunini xalqaro darajaga ko'tarish, modulli ta'lifni tashkil etish, o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarining kompetentligini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamiz oliy ta'lif tizimida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarida har bir oliy ta'lif muassasasini jahonning taraqqiy etgan davlatlaridagi oliy ta'lif muassasalari bilan tashkiliy-boshqaruv tizimi, moliyalash, akademik va ilmiy aloqalarini kuchaytirish orqali ilg'or tajribalarni o'r ganib borishga va uni amaliyatda joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qaysi mamlakatda fan-texnika taraqqiyotiga ko'p e'tibor berilsa, uning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilsa, o'sha yerda izchil rivojlanish "Renesans" hodisasi yuz beradi, jamiyatning intellectual salohiyati oshadi.

Jahonning aksariyat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifati, ya'ni sifatli kadrlar tayyorlash dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Bu, ayniqsa, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida tobora kuchaymoqda. Xorijiy davlatlardagi aksariyat OTMlarning davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy universitetlarning ko'payishi, ta'lifning iqtisodiy tizimdagi tovar kabi baholanishi, o'z mijozlariga ega bo'lishi OTMlar o'rtasida raqobat paydo qilmoqda va ular tayyorlayotgan kadrlarning sifatini to'xtovsiz oshirib borish ustida tinimsiz ishlashga majbur qilmoqda. Hozir va kelajakda ham har bir OTM o'z mijozlarini o'zi topishi tamoyilida ishlaydi. Raqobatbardosh, sifatli kadr tayyorlaydigan OTMlar iqtisodiy va ilmiy jihatdan kuchayib boradi hamda reytingi oshib borada. Shu o'rinda savol tug'iladiki, oliy ta'lifda sifatni o'zi nima va u qanday tushunchalarga ega? Oliy ta'lifda sifat bu ko'p qirrali, dinamik tushuncha bo'lib, u

ta’lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga hamda o‘ziga xos ma’lum standartlarga bog‘liqdir[2].

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda ham ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda, yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida oliy ta’lim tizimi ham izchil rivojlantirilmoqda. Ertamiz egalari yosh avlodning hech kimdan kam bo‘lmasdan kamol topishi ularni har tomonlama komil inson bo‘lib ulg‘ayishlari uchun amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy sharti ta’lim olish ekanligi bugun barchamizga ayon.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘qitish tizimini rivojlantirish va jarayonlarni boshqarishning innovatsion mexanizmlarini shakllantirish eng muhim masalalardan hisoblanadi. Pedagogik jarayonni optimallashtirish, o‘qitish sifatini oshirish hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash samaradorligini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida innovatsion o‘qitishni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo‘lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta’lim tizimida ham boshqarishni to‘g‘ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma’lum bir ob’ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir.

Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta’lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko‘ra pedagogik jarayonini rejalahtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta’lim muassasalarini boshqarish bo‘yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, “ta’sir etish” tushunchasining o‘rniga “o‘zaro harakat”, “hamkorlik”, “refleksiv boshqarish” kabi tushunchalar qo‘llanilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi[1].

Xo‘sh, menejer va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta’lim muassasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

“Menejment” va “menejer” atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o‘z mulklari va xodimlarni o‘zlari boshqarganlaridan ko‘ra tanlangan yo‘nalish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib etganlaridan so‘ng paydo bo‘ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Boshqa fanlar qatori menejment fani ham o‘z predmeti, nazariyasi va uslublariga ega bo‘lib, uning predmeti xo‘jalik yuritishning barcha yo‘nalishlarida boshqarishni tashkil etish mantiqi, shakllari, uslublarini ifodalovchi nazariy va amaliy tamoyillar majmuidan iborat. Insonlar ehtiyoji va ularning hayotdagi faolligi ortib borganligi tufayli sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, statistika, buxgalteriya hisobi, moliya va kredit, menejment iqtisodièti, makro va mikro iqtisodièti fanlari bilan uzviy bog‘liq.

Menejment fani ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan bog‘liq holda rivojlanib borib, maqsad va vazifalarga, xizmat qilish sohalariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi:

- amaliy menejment;
- inovatsion menejment;
- strategik menejment;
- marketing menejmenti;
- moliya menejmenti;
- texnologik menejment;
- ma’muriy menejment;
- ta’lim menejmentiga bo‘linadi.

Ta’lim menejmentining asosiy maqsadi – ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan o‘quv – tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda, oldiga qo‘yan maqsadlarga erishish va raqobatbardosh bitiruvchilar taylorlashda ta’lim – tarbiya jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan rahbarlar, mutaxassislar va ijrochilarining munosabatlari va faoliyatlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarishni ta’minlashdan iborat.

Insoniyat paydo bo‘lgandan so‘ng shaxslar u yoki bu shakl va mazmunda faoliyat ko‘rsatganlar. Ammo unda menejment fani shakllanmagan edi. Ular hayotiy extiyojlarini qondirish maqsadida mehnat qilishgan va bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishgan, shunda boshqarishga muxtojlik sezilgan. Mehnat davomidagi o‘zaro munosabatlar boshqarish usullarini shakllanishiga olib kelgan. O‘rta asrlarda shakllangan davlatlar, imperiyalar faoliyati murakkab tashkilotlarni boshqarish amaliyotidan darak beradi.

Ta’lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda sub’ektning sub’ektga munosabati darajasiga erishish, talaba va o‘qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o‘z

iste'dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi.

Oliy ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi.

Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinlidigadir.

Ikkinci belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi.

Uchinchi belgisi tizimning integrtsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo'ladi[5].

To'rtinchchi belgisi ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Chunki ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta'lim jarayonini qayta quradi hamda o'zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va talabalarining ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi. Shuningdek, markazlashtirilmasslikka ham keragidan ortiq e'tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko'zga tashlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmasslikni uyg'unlashtirish ma'muriy va jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamoyili pedagogik jarayonni boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o'qituvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o'ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a'zosining javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi[3].

O'z navbatida yakkahokimlikning o'ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi. Qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul bo'lsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish ma'quldir. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ta’lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to‘liqligiga ham bog‘liq. Agar axborotlar aniq, to‘liq yig‘ilsa yoki haddan ziyod ko‘p bo‘lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi.

Biz ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘zlashtirishi haqidagi ma’lumotlarni yig‘amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo‘nalishiga e’tibor beramiz. Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko‘plab og‘ishlar kuzatiladi[4].

Ta’lim muassasasining rahbari o‘zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o‘z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instuktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta’lim muassasasi ma’muriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratishi kerak. Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta’lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta’lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir Axborotlar jamg‘armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qambarov. M. Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. Dars ishlanma Namangan 2019-yil 3-bet.
2. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.
3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А., Психолого-педагогические основы развития креативности.-СПб.:СПГУТД, 2006
4. Guilford J.P (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444-454
5. Qo‘ysinov O.A. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma.-T.:TDPU, 2006-yil 46-bet
6. Muslimov N.A. Kasb ta’limini o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan.dok.diss.-T.,2007-yil 315-bet.
7. Samiyeva S. Этапы развития педагогического творческого мастерства преподавателей высшей школы //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.